



XURSHID DAVRONNING “SONETLAR GULCHAMBARI” XUSUSIDA

Tashova Dilorom

*IIV Buxoro akademik litseyi o‘qituvchisi,
BuxDU mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya: Keyingi yillar o‘zbek she’riyatida yangicha badiiy shakl izlanishlari jarayoni kechmoqda. Mustaqillik yillarida sonet janrida ham salmoqli ijod qilindi. Jahon she’riyati ta’sirida rivojlangan bu janrning o‘zbek adabiyotida yangicha ko‘rinishlari paydo bo‘ldi. Ushbu maqolada X.Davronning “sonetlar gulchambari” tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: sonetlar gulchambari, katren, terset, badiiy shakl, magistral, qofiyalanish tartibi.

Keyingi yillar o‘zbek she’riyatida sonet janri yangicha qiyofa va mazmun kasb etdi: “Yevropa adabiyotida keng tarqalgan sonet janri dastlab XIII asrda Italiyada shakllangan. Sonet italyanча “sonare” so‘zidan olingan bo‘lib, “jaranglamoq” degan ma’noni bildiradi. Sonet o‘n to‘rt misradan tarkib topgan mukammal janr. Sonetlar, asosan, a-b-b-a, a-b-b-a, v-v-g, d-g-d”¹ tarzida qofiyalanadi. Boshqa ko‘rinishda qofiyalangan sonetlar ham uchraydi. Sonetning birinchi qismi ikki to‘rtlik (ya’ni sakkiz misra), ikkinchi qismi ikki uchlik (ya’ni olti misra) bo‘lishi lozim. Birinchi qism katren, ikkinchi qism terset deb ataladi. Sonetning dastlabki bandida fikr rivojlanib borishi, ikkinchi bandda esa bu fikr muayyan xulosa bilan yakunlanishi kerak. X.Tojiyev, O.Xayrullayevalarning yozishicha: “G‘arbona an’analarning tadrijiy taraqqiyoti natijasida vujudga kelgan ushbu janr badiiy tajribalari o‘zbek milliy soneti shakllanishiga omil bo‘lganligini ilg‘ash qiyin emas”².

“O‘zbek she’riyati o‘z taraqqiyot yo‘lida jahon adabiyotidan nimalarnidir ijodiy o‘zlashtirishga uringan bo‘lsa bordir (hamkorlik, o‘zaro o‘rganish, ijodiy rivojlanish tabiiy jarayon, ammo buni taqlidchilikka aylantirmaslik lozim), lekin mohiyat e’tibori bilan bugungi yangilanayotgan o‘zbek she’riyati suv ichayotgan buloq bu – hayotning o‘zi. Zero, chinakam iste’dodli shoir yozayotgan she’ri ohangini qalbiga quloq tutib topadi. Qalb esa davrdagi o‘zgarishlarni o‘ta noziklik

¹ Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – Б.501.

² Тожиёв Х., Файзуллаева О. Ўзбек адабиётида сонет тақомили // Шарқ юлдузи. –Тошкент, 2016. №4. – Б.140-144



bilan ilg‘ab boradigan barometr”³. “O‘n beshta sonetdan tarkib topgan she‘riy majmua “sonetlar gulchambari” deb yuritiladi. Bunda birinchi sonet oxirgi misrasidan ikkinchi, ikkinchi sonet so‘nggi misrasidan uchinchi sonet boshlanadi va hokazo tarzda davom etadi. Sonetlar guldastasining oxirgi – o‘n beshinchi soneti magistral deb nomlanadi. U o‘n to‘rt sonetning birinchi misralaridan tashkil topgan bo‘ladi”⁴.

Keyingi yillarda o‘zbek she‘riyatida ana shunday “sonetlar gulchambari”ni yaratish an‘ana tusini oldi. O‘zbekiston xalq shoiri Xurshid Davron ijodida ana shunday “sonetlar gulchambari” alohida o‘ringa ega. Bir necha sonetlardan iborat “Ey, tilim, ey, elim, ey, ona tuproq” nomli turkumini Mahmud Qoshg‘ariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab, Turdi Farog‘iy, Nodira, Furqat, Ogahiy, Avaz O‘tar, Cho‘lpon, Usmon Nosir, Oybek, Mirtemir, Maqsud Shayxzoda kabi 14 nafar o‘zbek adabiyotida alohida mavqega ega ijodkorlarga bag‘ishlaydi. Bu shoir ijodidagi o‘ziga xos badiiy mazmun va shakl izlanishi bo‘lib, ularni yana bitta nom bilan sonet-monologlar ham deyish mumkin. Chunki shoir qaysi siymo haqida gapirmasin, ularning o‘zini so‘zlatadi va qismat ko‘rguliklarini, anduh-iztiroblarga to‘la kechinmalarni ta’sirchan ifoda etadi. Sonetlar guldastasi ham mantiqan to‘g‘ri nomlangan. Chunki bu she‘rlar turfa taqdirli 14 ijodkor qismati, hayotidan bahs etadi.

Dasht-u yovshan isi anqigan tilim,
Seni tinglab dilda sevgi kuchayur,
Sen borsan, hech qachon o‘limgay elim,
Sen borsan, hech qachon ko‘zdan yitmas nur⁵.

Sonetlar guldastasining dastlabkisi turkiyshunos olim Mahmud Qoshg‘ariy haqidadir. Barchamizga ma‘lumki, M.Qoshg‘ariy o‘zining “Devoni lug‘otit-turk” asari bilan o‘zbek adabiyotida turkiy tillar lug‘atiga oid yozma adabiyot namunasini qoldirdi. Olim qabilama-qabila, xalqma-xalq yurib, umumturkiy qavmlarning og‘zaki ijodida qo‘llanadigan qator janrlarni yozib oladi va to‘plam holiga keltiradi, shunday qilib u turkiy so‘zlar lug‘atini tuzadi. Ushbu she‘rda ham turkiy til tadqiqchisining o‘z ona tiliga bo‘lgan muhabbatni, uni tinglagan sari tilga bo‘lgan muhabbati kuchayib borishini Xurshid Davron chiroyli o‘xshatishlar bilan ifodalagan.

³ Hamdam U. Erkin badiiy tafakkur va bugungi o‘zbek she‘riyati. // O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati. – Toshkent, 2013. № 48.

⁴ Tashmuxeamedova L. Adabiyot tarixi va nazariyasi. – T.: Noshir, 2019. – B.100.

⁵ Даврон Х. Баҳордан бир кун олдин. – Т.: Шарқ, 1997. – Б. 63. (Keyingi misollar shu manbadan olinadi).



Shafqat tiladim-u tig' tutdi qo'lim!
 Janggohga chiqdim man – ishq fuqarosi,
 Ketsin, dedim, yurtidan jaholat – o'lim.

Beqiyos ma'naviyat timsoli, o'zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiyga bag'ishlangan ikkinchi sonetning uch misrali bandlarida shoir Xurshid Davron Navoiy o'z davrida jaholatga qarshi nafaqat Qalam bilan, balki tig' bilan ham kurashganligini ta'kidlar ekan, o'zining buyuk adabiy merosini ona tili – turkiy tilda yozib qoldirganligini, ona tili ko'zining oq-u qorasi kabi qadrlri ekanligini uqtiradi.

Sen borsan, chidayman dilim ohiga,
 Panipatmas, armon qo'zg'atar titroq.
 Bir umr zordirman yurtim xokiga,
 Meni olib ketgin, ey ona tuproq [64].

“Sonetlar gulchambari”ning uchinchisi shoh va shoir, Boburiylar sulolasi asoschisi buyuk bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Boburga bag'ishlangan. Boburning Vatan firog'ida yashaganligi, qalbida yurtini ko'rishga bo'lgan ulkan armoni borligi, buyuk saltanat asoschisi esa-da, ko'nglida halovat yo'qligini shoir tilidan ifodalar ekan, butun saltanatini yurtining xok-u xasiga almashishga tayyor ekanligini ifodalashi bilan Vataniga bo'lgan cheksiz muhabbatini izhor etadi. Bobur o'zga yurtda o'z ona tilida ijod qilgani bilan ko'ngliga taskin berganligini, yaratgan asarlari bilan yurtdoshlari qalbida mangu yashashini Xurshid Davron ta'sirchan ifodalaydi:

Sonetlarning keyingisi Mashrabga bag'ishlangan:
 Bu nedir, qani ayt, dormi yo yorning
 Bo'g'zimni qisguvchi qora sochimi?
 Hayot – ishq usti-yu, o'lim – ichimi?
 Ishqim beray, beray dunyoda borim,
 Ey, Mahmud Qatag'on, ey, sen qattol dor,
 Dunyoda o'limmas, abadiyat bor... [64]

Mashrab – o'zbek adabiyotida o'zining murakkab hayot yo'li bilan ajralib turuvchi ijodkor sanaladi. U Alisher Navoiyning qahramoni Farhod kabi ilohiy ishq bilan yashaydi. Uning xarakteridagi o'ziga xoslik, telbalik hayot yo'llarida ko'p nohaqliklarga uchrashiga sabab bo'ladi. Mashrab ana shu qiyinchiliklar haqida gapirar ekan, sonetning so'nggi misralarida Mahmud Qatag'on tomonidan qatl



etilganligini ham aytib o'tgan. "Dunyoda o'limmas, abadiyat bor" misrasini shoirning poetik topilmasi deb aytish mumkin.

Keyingi sonet Turdi Farog'iyga bag'ishlangan:

Sen bo'lding, umrimning asl g'oyasi...

Men seni sevardim, qay, ona makon,

Shundanmi o'lmadim, hamon o'lmayman,

Hamon "birlashing!" deb elga so'ylayman [65].

Turdi Farog'iy hajviyot yo'nalishida ijod qilib, uning rivoji uchun sezilarli hissa qo'shgan ijodkorlardan sanaladi. U Buxoro xonlaridan Nodirmuhammad va uning o'g'illari Abdulazizxon davrida yashagan bo'lib, bu paytda jamiyatda boshboshdoqliklar, ichki to'qnashuvlar, o'zaro kurashlar avj olgandi. Turdi Farog'iy ana shunday murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyatda ijod qilib, satirik-tanqidiy yo'nalishni ancha cho'qqiga olib chiqadi. Garchand undan bizga qolgan adabiy meros hajman katta bo'lmasa-da, o'zining ko'lamdorligi va mazmuni bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi sonetda ham Turdining boshdan kechirganlari, xususan, o'z xalqiga "birlashing" deya da'vat etgani, buning natijasida ko'plab qiyinchiliklarga uchragani shoir tilidan bayon etilgan.

Sonetlar gulchambaridagi keyingi she'r shoira Nodira haqidadir.

Alam tunlarining qonli zardobi

Qora sochlarimni bo'yadi oqqa,

Yonganda o'limning qora oftobi

Men faqat ishondim ona tuproqqa.

"Alam tunlarining qonli zardobi" misrasi tarixiy voqelikka – Amir Nasrulloxonning Qo'qonga nogahon bostirib kelganligini ifodalab keladi. "Qora sochlarimni bo'yadi oqqa" satrida esa Nodiraning ayanchli qismati – Amir Nasrulloxon uni o'g'li va nevarasi bilan qo'shib, so'yib ketishini ifodalab keladi. "O'limning qora oftobi" ham metaforik mazmunga ega. Oksimoron bo'lib kelgan bu satrda Nodiraning g'amli taqdiri aks etgan. "Tuproqqa ishondim qolgan she'rimni" misrasi ham bu yorug' olamni bevaqt tark etgan, she'rlari o'zi bilan qora tuproqqa qorishgan shoirani ko'z oldimizga keltiradi.

Sonetlar guldastasidagi Furqat, Ogahiy, Avaz O'tar monologlaridan iborat she'rlar ham mantiqiy izchillik kasb etgan. Bu she'rlarda Vatan ishqida yongan Furqat siymosi "umrning qaro kalomi", "adashgan it", "otasi o'lganda ichikkan go'dak" kabi obrazli ifodalarda yorqin namoyon bo'lgan. Ogahiy haqidagi sonetda esa "ko'ksi abgor", "tili kesilgan, ko'zlari o'yilgan" shoir ko'z oldimizga keladi.



Yoki turkumdagi yana bir sonet “zanglagan kishan”dagi dorga osilgan, “jinni” deya tamg‘a bosilgan ma’rifatparvar shoir Avaz O‘tarning ayanchli qismatilan so‘zlaydi.

Bu so‘zlar talangan, yongan, tishlangan –

Unib chiqar bahor kelsa har bir so‘z:

Bu – ang‘iz, bu – yalpiz, bu-chi, bo‘tako‘z...[66]

“Sonetlar gulchambari”ning o‘ninchisi XX asr yangi o‘zbek she’riyatining asoschilaridan biri, shoir, nosir, dramaturg, publitsist Abdulhamid Cho‘lponga bag‘ishlangan bo‘lib, she’rni o‘qir ekansiz, uning murakkab hayot yo‘li ko‘z o‘ngingizda gavdalangandek bo‘ladi go‘yo. “Osmonda bulutmas, yirtib tashlangan mening she’r daftarim” jumalari Xurshid Davronning yangi poetik topilmasi bo‘lib, undagi dil so‘zlari talangan, yongan, tishlanganligiga ishora qiladi. Cho‘lpon qatag‘on siyosatining nohaq qurboni bo‘lganligini, uning aytilmagan, yozilmagan qancha asarlari borligini yonib aytadi.

Juda oz yashadim, haqqim bor, so‘ray:

Yashab ulgurmagan kunlarim haqi,

O‘chimni, ishqimni, mehrimni beray

Beray yuragimni senga, ey, xalqim! [67]

Usmon Nosir – XX asr o‘zbek she’riyatiga chaqmoqdek kirib kelgan va yashindek qisqa ijodiy umr kechirgan shoir. U o‘zbek she’riyatiga tuyg‘ularni ochiq ifodalash, dolg‘ali ko‘rsatish yo‘lini olib kirgan ijodkor sifatida e‘zozlanadi. Ammo u mudhish hodisalar qurboniga aylanib, haqiqat deb erkini boy bergan kishi sifatida juda erta, yosh Sibirga surgun qilinadi. Bu sonetda Xurshid Davron shoirning hayotga tashnaligi, Vatani, xalqi mehriga to‘ymaganligini ifodalagan.

Nohaq zarbalardan bo‘lding ming tilim,

Hayotga qaytardi yam-yashil o‘tlar.

Yo‘lingni to‘smoqchi bo‘ldi zobitlar,

Seni yengolmadi xiyonat, dilim...

Hamid Olimjon ta’biri bilan aytganda, “Prozada shoir-u, poeziyada prozaik” ijodkor Oybek ham nasrda, ham nazmda salmoqli asarlar yozib qoldirdi. Yuqoridagi sonetda Oybekning “Navoiy” romaniga qo‘l urishga sabab bo‘lgan holat qalamga olingan. Oybek hayotda turli qiyinchiliklarga, nohaqliklarga duch keladi: unga Navoiy gumanizmi, shaxsiyati, uning ijodi katta kuch beradi va u shunday yirik nasriy asarni yozishga kirishadi.

Sen meni bekorga izlab ham yurma,

Quv, anov bolaga sen ham bir qara,

Tilini chiqarib qilar masxara...[68]



Mirtemir monologida shoirning “Toshbu”, “Onaginam”, “Majnuntol” she’rlariga ishoralarni ko‘rishimiz mumkin. Bu she’rlar shoir siyratini, qalb kechinmalarini, tug‘yonlarini ifoda etadi.

Navoiy baytini eshitgan o‘zbek
Yetti yurt naridan yig‘lab qaytadi,
Shuncha jabr, zulm, iztirob ozdek,
Kelib Mirzo Bobur baytin aytadi...
Dunyoda bor bo‘lsa necha xil ranglar
Kelsin, ko‘rsin, senda yuz karra ko‘proq...
Ey, tilim, ey, elim, ey, ona tuproq... [68]

“Sonetlar gulchambari”ning so‘nggisi Maqsud Shayxzoda tilidan bayon qilingan bo‘lib, unda Ulug‘bek, Navoiy, Bobur kabi buyuklarimizga murojaat qilish orqali talmeh san‘ati yuzaga keltirilgan. Yakunlovchi mazmun kasb etgan ushbu sonnet orqali shoir ona tiliga, ona xalqiga va ona yurtiga madhiya bitadi, bu betakror yurtga kelib, uning g‘aroyibotlariga guvoh bo‘lishga boshqalarni ham chorlab qoladi.

Yuqoridagi “sonetlar gulchambari” 14 ta sonetdan tashkil topgan bo‘lib, uning birinchi satrlaridan yangi bir sonetni hosil qilish mumkin. Xurshid Davron sonetlarining xususiyati shundaki, “sonetlar gulchambari” qoidasida keltirilganidek, takroriy satrlar uchramaydi. Har bir sonet yangi misra bilan boshlanadi. Sonetlarning yana bir e‘tiborli jihati shundaki, har bir sonet biografik xarakterga ega bo‘lib, muallif tilidan emas, balki sonetlar bag‘ishlangan qahramonlar nutqidan aytilgan va shu bilan Xurshid Davron ularning dilida yashirinib yotgan dardlari, hasratlarini ifoda etgandek tuyuladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002.
2. Тожиев Х., Файзуллаева О. Ўзбек адабиётида сонет такомилли // Шарқ юлдузи. –Тошкент, 2016. №4.
3. Намдам У. Erkin badiiy tafakkur va bugungi o‘zbek she’riyati. // O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati. – Toshkent, 2013. № 48.
4. Tashmuxamedova L. Adabiyot tarixi va nazariyasi. – Т.: Noshir, 2019.
5. Даврон Х. Баҳордан бир кун олдин. – Т.: Шарқ, 1997.